



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




NAVOIY VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2021- YILNING
YANVAR-DEKABR OYLARIDA

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7442,5** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1602,0** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,0** % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan, tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni almashtirishga yordamlashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **235,7** mlrd. so'mga o'sdi va **742,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **168,1** mlrd. so'mga o'sgan va **598,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning noyabr oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **0,8** mlrd. so'mga o'sdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning noyabr oyiga nisbatan 2020- yil dekabr oyida xizmatlar hajmi **44,2** mlrd. so'mga o'sgan.

Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	7 442,5	118,0
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	293,5	115,9
Moliyaviy xizmatlar	1 595,3	126,2
Transport xizmatlari	1 314,0	120,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 112,7	116,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	278,1	114,5
Savdo xizmatlari	2 359,2	110,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	150,4	109,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	268,7	123,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	88,9	112,2
Ijara xizmatlari	129,2	121,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	123,4	118,0
Shaxsiy xizmatlar	187,6	116,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	368,5	135,2
Boshqa xizmatlar	285,7	118,7

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,7 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**21,4 %**), transport (**17,7 %**), shuningdek, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (**5,0 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida ulushi **1,2 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **33,1 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,6 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish me'morchilik sohasidagi xizmatlarda (**35,2 %**), moliyaviy xizmatlar (**26,2 %**), ta'lim sohasida (**23,1 %**), ijara xizmatlari (**21,0 %**), transport xizmati (**20,0 %**), hamda kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlarida (**18,0 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (**8,1 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **124,3** %. Boshqa xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **13,6** %.




Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,7 %** ni tashkil etib, bu **2 359,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1 933,4** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **33,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **84,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **8,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**7,7 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo ulushi **83,3 %** ga yetdi.



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 595,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1 242,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **21,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar- dekabr oylarida ularning ulushi **21,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **353,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,2** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati **124,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,3** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0** % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,7** % ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **93,0** % ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.


Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0** % ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,0** %.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi **1 314,0** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2020- yilning shu davriga nisbatan **20,0** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,7** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **84,7** % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **87,0** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-dekabr

2021- y. yanvar-dekabr



Yuk tashish



Yo'lovchi tashish

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **67,9** % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **70,0** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- y. yanvar-dekabr


2021- y. yanvar-dekabr





2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **268,7** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,6%** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **123,1 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.
yanvar-dekabr

2021- y.
yanvar-dekabr



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr

Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr


2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **79,8** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2020- y.
yanvar-
dekabr

Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2021- y.
yanvar-
dekabr



2021- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **86,5** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **85,4** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Navoiy viloyati	7 442,5	118,0	105,8
<u>Navoiy sh.</u>	2 825,4	120,7	111,9
<u>Zarafshon sh.</u>	910,0	116,7	104,9
<u>tumanlar:</u>			
<u>Konimex</u>	181,3	113,9	104,2
<u>Qiziltepa</u>	669,2	117,9	105,5
<u>Navbahor</u>	453,5	114,2	103,8
<u>Karmana</u>	1 072,6	118,7	105,0
<u>Nurota</u>	343,3	114,1	104,0
<u>Tomdi</u>	103,4	112,9	103,4
<u>Uchquduq</u>	258,3	115,3	105,2
<u>Xatirchi</u>	625,5	116,0	104,9

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

7 270,2
ming so'm

1 461,1
ming so'mga

115,9 %

O'sish sur'ati



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 270,2** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **5 809,1** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** da qayd etilgan.



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

14 779
birlik



1 772
birlikka
o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

113,6 %



65,1 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **65,1 %**, sanoat **16,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **11,5 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **7,4 %** ga to'g'ri keldi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **65,1 %** ni, sanoat **16,0 %** ni, qurilish **7,4 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,5 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**34,7 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **6,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **3,1 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **1,4 %** ni tashkil etdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,1 %** ga teng bo'ldi.

Savdo – 34,7

Boshqa turdagi xizmatlar – 18,6

Yashash va ovqatlanish – 6,2

Tashish va saqlash – 3,1

Sog'liqni saqlash – 1,4

Axborot va aloqa – 1,1


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



59,1 %

2021- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 59,1 % ni tashkil etdi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 85,4 % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-63-31

